UDK:633.15:581.167

SABZAVOT (SHIRIN) MAKKAJO‘XORI NAVLARINI TAKRORIY EKIN SIFATIDA O‘STIRISHNING ILMIY ASOSLARI

Raxmatov Idrok Ilxomovich
Buxoro davlat universiteti, q.x.f.f.d (PhD), katta o’qituvchi
idrok2019@gmail.com
+998 91 240 37 74
ORCID.ID: 0000-0002-6808-2570

Annotatsiya. *Tezisda sabzavot (shirin) makkajo‘xori navlarini takroriy ekin sifatida o‘stirilganda o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va so‘ta hosildorligi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sabzavot (shirin) makkajo‘xori, nav, geterozisli duragay, Davlat reyestri, makkajo‘xori doni, sut pishish davri, ro‘vagi, asosiy ekin, o‘suv davri, o‘simlik bo‘yi, yon poyalar soni, birinchi so‘ta joylashish balandligi, bir tupdagi so‘ta soni, so‘ta vazni, hosildorlik.*

Аннотация. *В данной статье приведены сведения о росте, развитии растений при выращивании сортов овощной (сладкой) кукурузы в качестве повторного посева, а также об урожайности початка.*

Ключевые слова: *овощная (сладкая) кукуруза, сорт, гетерозисный помесь, Государственный реестр, зерно кукурузы, период молочной спелости, метелка, основной посев, период выращивания, рост растения, количество боковых стеблей, высота расположения первого початка, количество початков в одном кусте, урожайность.*

Abstract. *This article provides information about growth, development of plants during cultivation of sorts of vegetable (sweet) corn as re-sowing, as well as on the yield of cob.*

Keywords: *vegetable (sweet) corn, sort, heterosis mix, State Register, corn grain, period of milk ripeness, panicle, main sowing, growing period, plant growth, number of side stems, height of the first cob, number of ears in one bush, yield.*

Respublikamizda yaratilgan maxalliy sharoitga mos sabzavot makkajo‘xori navilarini hamda duragaylarini asosiy va takroriy ekin sifatida yetishtirish uchun yaroqli, tezpishar navlarning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda iqlimlashtirish, turli tuproq iqlim sharoit va turli muddat hamda usullarda o‘stirish texnologiyalari ishlab chiqish sohaning dolzarb masalalaridan bo‘lib hisoblanadi.

Sabzavot (shirin) makkajo‘xori kuchsiz sho‘rlangan yerlarda o‘stirishga yaroqli, bo‘lib asosiy va takroiy ekin sifatida o‘stiriladi. Sabzavaot ekini sifatida o‘suv davri qisqa bo‘lganligi bois boshqa ekinlarga nisbatan suv sarfi tejaladi, so‘talari sut-mum pishish fazasida yig‘ib olinib qaynatilgan, konservalangan va muzlatilgan holda iste’molda ishlatiladi. So‘talari yig‘ib olingandan keyin o‘simlik poyasi yashil holatda bo‘lib poyasi va barglarida qand miqdori va oziqa birligi yuqori bo‘lganligi bois chorva mollari uchun to‘yimli ozuqa hisoblanadi.

Tajriba natijalari. Sabzavot (shirin) makkajo‘xori navlar to‘plami asosiy ekinlardan bo‘shagan yerlarga takroriy ekin sifatida 10-iyunda 70x20 sm sxemada ekilib, unib chiqish, 1,2,3-chinbarg, ro‘vaklash, ro‘vakni gullashi, so‘talash, sut, mum pishishlar boshlanishi (10 %) va to‘la (75 %) ro‘y berish muddatlari aniqlandi.

Sabzavot (shirin) makkajo‘xori navlarining unib chiqishi asosan 18-20 iyunga yani ekilganning 9-10 chi kuniga to‘g‘ri keldi. Nisbatan tez unib chiqish Sherzod va Zamin (18-19.06) navlarida qayd etildi. Eng kech unib chiqish esa Evrika navida (21.06) qayd etildi. Bundan tashqari 1- chin barg chiqarish, 2- chin barg chiqarishda ham navlararo qonuniyat saqlanib qoldi. O‘rganilgan navlar ichida ro‘vaklash asosan navlararo 28 iyul – 4 avgust oralig‘ida kuzatildi. So‘talash esa barcha navlarda kuzatilib, Sherzod va Zamin navlarida asosan avgust oyining 8 – 9 kunlariga, Mazza va Evrika navlarida qisman kechroq 12 – 14 avgustga to‘g‘ri keldi. Tajribada sutalarning sut va mum pishishi o‘rganilganda eng tez so‘taning pishishi standart Sherzod navida 1 sentabrda qolgan navlarda 3-8 sentabrda standart navga nisbatan 2-7 kun kech qayd etildi. Sabzavot (shirin) makkajo‘xori navlarining biometrik ko‘rsatkichlari tajribada o‘rganilib navlar ichida eng baland bo‘yli o‘simliklar standart Sherzod (165,6 sm), Zamin (161.2 sm), Evrika (158.1sm) navlarida qayd etildi. Birinchi so‘taning joylanishi yani balandligi navlararo 30,0 – 34,3 sm bo‘ldi. Tuplanganlik navlararo 1-4 donani tashkil etdi. Navlarda bosh poyadagi barglarning soni 11,7 donadan 13,4 donagacha o‘zgardi. Bo‘g‘im oraliqlari esa 9,5 donadan 11,1 donagacha bo‘ldi. Bir tupda so‘talarning hosil bo‘lishi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Sherzod (4,9 dona) Zamin (5,3 dona), Evrika (2,0 dona) va Mazza (2,0 dona) navlarida qayd etildi. O‘rganilgan navlar to‘plamida so‘tasiz o‘simliklar kuzatiladi.

Mahsuldorlik. Tajribalarimizda sabzavot (shirin) makkajo‘xori navlarining mahsuldorlik ko‘rsatkichlari o‘rganilib, bunda so‘ta vazni, so‘tadagi don qatorlari, bir qatordagi donlar soni, so‘tadagi donlar soni, vazni va don chiqimi fozi bo‘yicha nisbatan farq qildi.

Sabzavot (shirin) makkajo‘xori navlarida bir dona so‘taning vazni navlararo 245,5 – 314,4 grammgacha qayd etildi. So‘taning vazni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Sherzod (314,4 gramm) navida kuzatildi. So‘tadagi don qatorlar soni o‘rganilganda navlararo 12,8 – 15,3 qatorgacha kuzatildi. Eng ko‘p qator soni Zamin navida qayd etildi. Navlararo so‘taning bir qatoridagi donlar soni 32,5 – 39,7

donagacha, bitta so‘tadagi donlar soni 458,3 – 526,3 donagacha bir so‘tadagi donlar vazni 194,1 - 247,5 gramgacha bo‘ldi. So‘tadagi o‘zak vazni navlararo 46,4 - 66,9 gramgacha so‘tadan don chiqimi 78,7 dan 81,9 % gacha qayd etildi. So‘tadan don chiqimi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Zamin va Sherzod kabi navlarda qayd etildi. Umuman sabzavot (shirin) makkajo‘xorining mahsuldorlik ko‘rsatkichi bo‘lgan 1000 dona don vazni o‘rganilganda navlararo 218,3 – 381,6 gramni tashkil etdi.

Tajribada sabzavot (shirin) makkajo‘xoridan gektaridan olingan silos massa hosildorligi ham o‘rganildi, bunda navlar aro silos massa hosildorligi – gektaridan 35,1 - 37,6 tonnani tashkil etdi.O‘rganilgan navlarning don hosildorligi gektaridan 5,0 – 5,8 tonnagacha kuzatildi. Bundan eng yuqori hosildorlik Zamin (5,8 tonna) navlarida qayd etildi.

Tajribalarimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki sabzavot (shirin) makkajo‘xori navlarini takroriy muddatda o‘stirib sabzavot sifatida 85-105 ming dona yoki 10-12 tonna so‘ta olish mumkin ekan. Urug‘lik doni uchun o‘stirilsa gektaridan 5,0 – 5,8 tonna don hosil yetishtirishga imkoniyat yaratilar ekan. Shu bir qatorda chorva mollari uchun gektaridan 35,1 - 37,6 tonnani shirali ozuqa silos hosili berganligi kuzatildi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Остонақулов Т.Э. ва бошқалар. Сабзавот (ширин) маккажўхори навларини танлаш ва улардан юқори ҳосил олиш технологиясига оид тавсиялар. Т., 2005, 38 бет.
2. Санаев С.Т., Сапарниязов И.А. Сабзавот(ширин) маккажўхорини турли муддатларда экиб ўстирлганда ўсиши ривожланиши ва ҳосилдорлиги. Нукус 2018 й.